

XIV-XV asrlarda Buxoroning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti

Jamshid Qulnazarovich Kucharov
mahmudorziyev@gmail.com
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada temuriylar saltanati mavjud bo'lib turgan davrda Buxoro vohasida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga oid masalalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Zaxkash, Temur arig'i, kanal, yahudiylarni ko'chirish, Somonchiq dashti, madrasa, Iskandarxon guzari, oyuodonlashtirish, madrasa

Socio-economic and political development of Bukhara in the XIV-XV centuries

Jamshid Kulnazarovich Kucharov
mahmudorziyev@gmail.com
Karshi State University

Abstract: This article analyzes the socio-economic and political processes in the Bukhara oasis during the reign of the Timurids

Keywords: Zakhkash, Temur arigi, canal, Jewish resettlement, Somonchik steppe, madrasa, Iskandarkhan guzari, oyuodonization, madrasa

Buxoro tarixning barcha davrlarida nafaqat O'zbekiston, balki jahonning boshqa mintaqalarida ham o'ziga xos mavqega ega bo'lgan. Amir Temur va temuriylar davrida Buxoro tarixi va uning jahon tarixi, jumladan SHarq mamlakatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy munosabatlari etarli darajada o'rganilmagan. Amir Temur va temuriylar davrida Buxoro va uning jahon tarixidagi mavqeini o'rganish mavjud ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish orqali ma'lum bir ilmiy xulosa va tasavvurga ega bo'lishimiz imkonini beradi.

Amir Temur va dastlabki temuriylar jumladan, Mirzo Ulug'bek davrida Buxoroni obodonlashtirish, iqtisodiy salohiyatini oshirishga harakat qilgan. Buxoro mo'g'ullar davrida bir necha bor vayron qilingan bo'lib, hatto Amir Temurning Movarounnahrda markazlashgan davlat qurish uchun kurashlari davomida ham 1376 yil Yusuf So'fi, 1380, 1389 yillarda To'xtamishxonlarning hujumlari Buxoro shahrini vayronaga aylantirgan. Amir Temur Buxoroni qayta tiklash, shuningdek, xalqaro savdodagi

aloqalarini rivojlantirish maqsadida Sheroz shahridan bir qism yahudiylarni Buxoroga joylashtirgan. XX asr boshlarida ham ushbu yahudiylar o'zlarining Amir Temur tomonidan ko'chirilganliklarini ta'kidlab Buxoroning "Mahallai ko'hna" guzarida istiqomat qilganlar. Shunindek, M.Orziyev va A.Axmadovlarning izlanishlarida Sirdaryoning o'rta oqimidan Amir Temur buyrug'i bilan Shohrux Mirzo va Ulug'beklar tomonidan Buxoroga tomon qazilgan ariq masalasi, Mirzo Ulug'bekning Somonchiq dashtida kanal qazib Buxoroning janubiy-g'arbiy qismini obod qilganligi bilan ma'lumotlar keltiriladi. Bundan tashqari, Kogondan janubiy-sharqiy yo'nalishda chiqarilgan kanal xalq xotirasida Temur ariq deb saqlanib qolganligi bilan bog'liq ma'lumotlar rus olimi P.F. Sitnyakovskiyning Rus jug'rofiya jamiyatiga yo'llagan hisobotlarida keltirilgan. Buxoro shahri shimolida yirik zaxkash (kollektor) mavjud bo'lib, uni xalq Amir Temur nomi bilan bog'laydi. Ehtimolki, bir vaqtlar Sirdaryodan qazib Buxorogacha keltrilgan kanal qoldiqlari ham bo'lish ehtimoli mavjud. Tarixiy adabiyotlarda aynan shu zaxkash sababli Buxoro shahri shimolida dehqonchilik va bog'dorchilik ishlari ancha yaxshi bo'lganligini ham ta'kidlaydi.

Amir Temur va Ulug'bek davrida Buxoro shahrining maydoni kengayib, unga yaqin atrofdagi erlar yangi guzarlar sifatida qo'shib olinganligini tarixiy manba va adabiyotlar tasdiqlaydi. Qadimgi Buxoroning Iskandarxon guzari xususida yozib O.A. Suxareva guzarining (Imom va Samarqand darvoza oraliq'i) Amir Temur va keyinchalik Ulug'bek davrida qal'a devorini kengaytirish orfali shaharga qo'shilgan degan xulosalarni keltiradi. V.A. SHishkin bilan shaxsiy muloqotlarida shaharning bu hududidagi sopol qoldiqlari qadimgi davrlarga xos bo'lmaganligi bilan bog'liq fikrlarini ham keltirib o'tadi.

Tarixiy adabiyotlarda Amir Temur davrida Buxoroda Chashmai Ayub yodgorligi, Mirzo Ulug'bek tomonidan madrasa binosining qurilganligi bilan bog'liq ma'lumotlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, Amir Temur va temuriylar (mirzo Ulug'bek-J.K.) Buxoro vohasi va uning Movarounnahr minntaqasidagi iqtisodiy, strategik ahamiyatini yaxshi anglab, bu shahar va hududni davlatning iqtisodiy va harbiy tayanchiga aylantirishga harakat qilganlar. Zotan Samarqand uchun janubiy-g'arbiy yo'nalishdagi kuchli mudofa chizig'i ham kun tartibiga qo'yilgani shubhasizdir.

Mo'g'ullar davrida vayron bo'lgan Buxoroning iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy jarayonlarda faol ishtirok etishi Mirzo Ulug'bek davrida ko'zga tashlana boshlangan. Mirzo Ulug'bek davrida 1428-1429 yillarda Buxoroda zarb qilingan tangalar XVI asr boshlariga qadar muomalada bo'lgan. Ulug'bek davriga oid topilgan tangalarning 97 % zi yoki 1712 tasi Buxoroda 1428-1429 yillarda zarb qilingan bo'lib, atigi 3 % zi yoki 56 ta topilgan tangalar boshqa shaharlarda zarb qilingan. Ular sifati jihatidan Buxoroda zarb qilinganlar bilan tenglasha olmagan. Xulosa qilish mumkinki, bu davrda Buxoro

saltanatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan moliyaviy markazlardan biriga aylanib ulgurgan.

Buxoroning iqtisodiy va madaniy markaz sifatida ahamiyatining ortib borishi xorijiy mamlakat elchi, sayyoh va ayg'ochilarining ham e'tiboridan chetda qolmadi. Temuriylar davrida Xitoyning Min sulolasi bilan elchilik aloqalari rivojlanib, o'zaro ko'plab elchi, savdogarlar orqali turli munosabatlar amalga oshirilgan. Xitoyning Min sulolasi elchisi bo'lgan va temuriylar saroyiga tashrif buyurgan Chen Chen O'rta Osiyo hududlarida bo'lib, o'z xotiralarida 17 ta davlatni sanab o'tadi. Buxoro shahri esa bu ro'yxatning oxirida keltirilgan.

Tarixiy adabiyotlarda Min sulolasi elchisi Chen Chen 1414 yil fevralda O'rta Osiyo hududlari sari yo'lga o'tlanib, shu yilning okyabr oyida qariyb 8 oydan so'ng Hirotda bo'lgan. Xitoyga aqytgach, xotiralarida sanab o'tilgan o'lkalar soni 17 tani tashkil etadi. bu o'lkalar Samarqand, Andxoy, Badaxshon, Termiz, SHoxruxiya, Toshkent, Buxoro, Sayram, Kesh, Yangikent, Beshbaliq, Karaxodja, Lukchui, Turfon, Lobnor, Xami kabilar edi. Lektirilgan ro'yxatdan ko'rish mumkinki, iqtisodiy va siyosiy jihatdan temuriylar davlati tarkibida bo'lmagan o'lkalar ham sanab o'tilgan. Demak, Buxoro ham Chen Chen O'rta Osiyoda bo'lgan davrda ma'lum bir ma'noda iqtisodiy va siyosiy jihatdan O'rta Osiyodagi etakchi markazlardan biriga aylangan deb aytish mumkin. Chen Chen Min davlatiga qaytgandan so'ng, o'zi bo'lib qaytgan 17 o'lkaning ham tavsifini "Shi si yuy szi" (G'arbiy o'lkalardagi elchilik xotiralari) nomli asarda keltirib o'tadi va Buxoroning ham qisqa bo'lsada tarif-tavsifini keltirib o'tadi.

Xitoy Min sulolasining rasmiy tarixini yorituvchi manbasi bo'lgan Min shi (Min sulolasi tarixi) asarida ham Buxoro haqida qisqa bo'lsada ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Min shining 332 bo'limi 9 "b" varag'ida Buxoro haqida bir necha o'n hieroglifdan iborat ma'lumotlar bo'lib, ulardagi biz uchun muhimi Buxoroning nomlanishi bilan bog'liq ma'lumotlardir. Unda Buxoro Buxuaer, Buxala kabi nomlar bilan atalgan bo'lib, bu atamaning kelib chiqishi mo'g'ul tilidan kelib chiqqanligi bilan bog'liq ma'lumotlarni ham o'qish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mo'g'ullar istilosi va Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish jarayonida Buxoro vayronaga aylanib, uning iqtisodiy-ijtimoiy mavqei pasayib ketgandi. Amir Temur va keyinchalik Mirzo Ulug'bek tomonidan olib borilgan obodonlashtirish, tiklash ishlari natijasida Buxoro o'z mavqeini tiklab temuriylar davri so'nggida nafaqat o'lka, balki mintaqada muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Orziev M.Z., Axmatov A.H. Sirdaryodan Buxoroga tomon qazilgan kanal: haqiqatmi yoxud uydirma//Buxoro davlat ilmiy axborotlari 2019/ № 1. –235-240 b.
2. Elov Z.S. Berdiyeva D.Sh. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. Oriental renaissance: innovative, educational,

natural and social sciences scientific journal. volume 2, issue 2 February 2022 1003-1009

3. Elov Z.S. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. science and education scientific journal volume 3, issue 3 march 2022 442-447

4. Elov Z.S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O'quv-metodik qo'llanma. 2021. Buxoro 1-164.

5. Elov, Z. S. (2016). Researches of the Reasons Conditions. Fastors of Suicide Rick Intellectual Archive, 5(1), 49-53.

6. Elov, Z. S. (2022). O 'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. Science and Education, 3(3), 442-447.

7. Jo'Rayeva, Z. A., & Maxmudova, Z. M. (2022). Sudga oid psixologik ekspertizani tashkil qilish va uni o'tkazishning o'ziga xosligi. Science and Education, 3(4), 1916-1922.

8. Jurabek Majidov, Road and tranport issues in Bukhara as a social problem , Центр научных публикаций (buxdu.uz): Том 8 №8 (2021): Maqola va tezislar (buxdu.uz)

9. Jurabek Majidov, XX asr 70-yillarininng 2-ярмида Бухорода телефон хизмати хусусида , центр научных публикаций (buxdu.uz): Том 6 № 2 (2020): Хоразм маъмун академияси ахборотномаси (buxdu.uz)

10. Jurabek Majidov, Бухоро халқ совет республикасида куруклик ва ҳаво транспорт: ечим ва муаммолар , Центр научных публикаций (buxdu.uz): Том 8 № 8 (2021): Maqola va tezislar (buxdu.uz)

11. Jurabek Majidov, Вопросы транспорта и дорожного строительства в Бухаре, центр научных публикаций (buxdu.uz): Том 10 № 9 (2020): ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (buxdu.uz)

12. Jurabek Majidov, Из истории Амударьинской флотилии конца XIX - начала XX веков (по материалам Туркестанской коллекции), Центр научных публикаций (buxdu.uz): Том 1 № 1 (2020): Maqola va tezislar to'plami (buxdu.uz)

13. Jurabek Majidov, Наземный и воздушный транспорт в СССР, Центр научных публикаций (buxdu.uz): Том 1 № 1 (2020): Maqola va tezislar to'plami (buxdu.uz)

14. Jurabek Majidov, Распространение иранской прессы в Туркестан и Бухару в начале XX века. , Центр научных публикаций (buxdu.uz): Том 6 № 2 (2020): Хоразм маъмун академияси ахборотномаси (buxdu.uz)

15. Jurabek Majidov. "Туркистон тўплами" да афғон туркистони бекликларининг сиёсий тарихига оид айрим маълумотлар (Xviii-Xix асрлар) // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – Хива 2021. 4-сон. – Б. 136-140.

16. Jurabek Majidov. History of Border Conflicts Between the States of Bukhara and Afghanistan in the Second Half of the 18th Century // available online at www.cajssh.centralasianstudies.org Central Asian journal of social sciences and history journal homepage:// [www.http://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CASSH](http://www.cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CASSH). – P. 115-123.

17. Jurabek Majidov. On the aspects of zahiriddin muhammad babur's political activity related to bukhara // European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 8, August 2021, ISSN: 2660-5562. P. 84-86.

18. Jurabek Majidov. On the role of bukhara in the development of science and culture during the reign of amir temur and the temurids // ACADEMICIA an International Multidisciplinary Research journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) -Vol. 11, Issue 3, March 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492. – P. 1-6.

19. Jurabek Majidov. Амир Темур сиёсий фаолияти ва бухоро уламолари // Хоразм Маъмур академияси ахборотномаси. № 10. – Хива. 2021. – Б. 354-357

20. Jurabek Majidov. Материальная поддержка типографии, созданной в бухарском эмирате // Россия-Узбекистон: Международные образовательные и социально-культурные технологии: Векторы развития. – Магнитогорск. 2019. – С. 58-60.

21. Jurabek Majidov. Мўғуллар истилоси ва темурийлар даврида динлараро муносабат // Бухоро “Дурдона” нашриёти 2018. – 51 б.

22. Jurabek Majidov. Россия протекторати ўрнатилиш жараёнида бухоро амирлиги ва усмонли турк давлати муносабатлари . // Ўтмишга назар 2021. № 1. – Б. 47-51.

23. Olimov L.Ya, Avezov O.R., Baratov Sh. R. Psixologiya nazariyasi va tarixi (o`quv qo`llanma) <https://library.sammi.uz/Library/> 1 (1), Ўзбекистон

24. Olimov L.Ya, Baratov Sh. R. АВЕЗОВ О.Р. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. “O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. Toshkent. 2019. -B. 494.

25. Olimov L.Ya. Shaxs psixologiyasi. “Durdoni” nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 280.

26. Olimov L.Ya. Xulqi o`gishgan bolalar psixologiyasi. Darslik. Buxoro, “Durdoni”. 2019. – 460.

27. Olimov, L. (2020). ЛЯ психологической защита: Психологик химоя механизмларининг ижтимоий психологик хусусиятлари. центр научных публикаций (buxdu.uz), 2(2).

28. Qizi, S. M. Z., & Sattorovich, E. Z. (2022). Priorities of psychological services in preschool educational organizations. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(3), 900-904.

29. Yarashovich, O. L. (2020). O'smirlarning ba'zi dinamik xususiyatlari kontekstida kurashish xatti-harakatlarini o'rganish xususiyatlari. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 1(1).

30. ZM Maxmudova, AZJKYK Olimov, L Ya. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. "Durdon" nashriyoti. Buxoro. 2021

31. қизи Расулова, М. Б., & Олимов, Л. Я. (2022). Ўсмир шахси ривожланишида ахлоқий нормалар муаммосининг ҳозирги замон психологиясида тадқиқ этилиши. таълим ва ривожланиш таҳлили онлайн илмий журнали, 2(3), 204-207.

32. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.

33. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик ҳимоя механизмларининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.

34. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик ҳимоя механизмларининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. XXI аср психологияси 1 (1), Ўзбекистон

35. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Экстремал вазиятларда копинг хулқ-атвор ва стратегиялар намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 3 son 98-106 b.